



2024- yilning yanvar-mart oylarida Navoiy viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 2 354,1 mlrd. so'mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,3 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 2 198,9 mlrd. so'mni (104,4 %), o'rmon xo'jaligi – 127,8 mlrd. so'mni (102,9 %), baliqchilik xo'jaligi – 27,4 mlrd. so'mni (104,5 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Navoiy viloyatining ulushi 5,2 % ni tashkil etdi.



Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining oʻsish surʼati




Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, (% da).



2024- yilning yanvar- mart yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 93,4 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 5,4 % i – o'rmon xo'jaligi, 1,2 % i – baliqchilik xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi (mlrd.so'm)



2024- yilning yanvar- mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Xatirchi (626,1 mlrd. so'm), Qiziltepa (430,5mlrd. so'm) va Navbahor (334,8 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Navoiy shahar (17,7 mlrd. so'm), Zarafshon (19,9 mlrd. so'm), G'ozg'on shahar (25,7 mlrd. so'm) larini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'ati Navoiy shahar (125,7 %), Karmana (110,7 %), Konimex (107,7 %), Tomdi (105,6 %), Nurota (104,5 %), Qiziltepa (103,2 %), Xatirchi (102,8 %), Navbahor (101,9 %), aksincha Zarafshon shahar (101,7 %) G'ozg'on shahar (101,6 %), Uchquduq tumanlarda esa (101,0 %), past sur'atlar kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati, (%) da




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2024- yilning yanvar- mart oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 2 168,1 mlrd. so'mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 92,8 mlrd. so'mni (115,7 %), chorvachilik mahsulotlari 2 075,3 mlrd.so'm ni (103,9 %) tashkil qildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining tumanlar kesimida taqsimlanishi (%) da




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 81,4 % i – dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 9,8 % i – fermer xo'jaliklariga, 8,8 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tumanlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%) da




2024-yilning yanvar- mart oylari yakuniga ko'ra yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Tomdi tumanida (22,2 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Zarafshon shahri (95,7 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Navoiy shahrida (68,7 %) qayd etildi.

Dehqonchilik


2024- yilning yanvar- mart oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 92,8 mlrd. so'mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 115,7 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 4,3 % ni tashkil qildi.

Sabzavotlar


Hajmi, tonna.



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 3948 tonna sabzavotlar (2023- yilning yanvar- martiga nisbatan 24,7 % ga ko'p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 77,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Navoiy viloyati bo'yicha
sabzavotlar yetishtirish
hajmi, tonna



2024- yilning yanvar- mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 2 075,3 mlrd. so'mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 95,7 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.




2024- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 31,2 ming tonna go'sht (2023- yilning yanvar- martiga nisbatan 3,1 % ga ko'p), 87,8 ming tonna sut (3,5 % ga ko'p),


89,0 mln. dona tuxum (115,2 % ga ko'p) yetishtirildi va 1,4 ming tonna baliq (4,2 % ga ko'p) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 31,2 ming tonna go'sht (2023- yilning yanvar- martiga nisbatan 3,1 % ga ko'p) yetishtirildi. Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht yetishtirish umumiy hajmidan 83,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Navoiy viloyati bo'yicha
go'sht (*tirik vaznda*)
yetishtirish hajmi, tonna




Sut

Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 87,8 ming tonna sut (2023- yilning yanvar- martiga nisbatan 3,5 % ga ko'p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 89,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Navoiy viloyati bo'yicha
sut yetishtirish
hajmi, tonna




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 89,0 mln. dona tuxum (2023- yilning yanvar- martiga nisbatan 15,2 % ga ko'p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 54,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




Navoiy viloyati bo'yicha
tuxum yetishtirish
hajmi, ming dona




Baliq ovlash


Hajmi, tonna.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1350,0 tonna (2023- yilning yanvar- martiga nisbatan 4,2 % ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalaribo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 62,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Navoiy viloyati bo'yicha
ovlangan **baliq**
hajmi, tonna



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,9 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 88,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 27,6 % i fermer xo'jaliklariga, 57,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 15,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 11,9 % i fermer xo'jaliklariga, 55,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 32,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.


2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 536,4 ming taga yetdi. 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 10,8 ming taga (2,1 %) ko'paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 88,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Navoiy viloyati
bo'yicha **yirik shoxli**
qoramollarning umumiy
bosh soni, ming bosh




2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 214,3 ming taga yetdi. 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni (2,2 %) ga ko'paydi.

Sigirlar

Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



**Bosh sonining xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**



Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 90,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Navoiy viloyati
bo'yicha **sigirlarning**
umumiy bosh soni,
ming bosh




2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 2 443,2 ming taga yetdi. 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni 48,7 ming taga (2,0 %) ko'paydi.

Qo'y va echkilar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami qo'y va echkilarning 57,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Navoiy viloyati bo'yicha
qo'y va echkilarning
umumiy bosh soni,
ming bosh




2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 22 063 taga yetdi. 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni 940 taga (4,5 %) ko'paydi.

Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami otlarning 49,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Navoiy viloyati bo'yicha **otlarning** umumiy bosh soni, bosh




2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 3 755,4 ming taga yetdi. 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni 172,5 ming taga (4,8 %) ko'paydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



**Bosh sonining xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**



Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 55,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



Navoiy viloyati
bo'yicha
parrandalarning
umumiy bosh
soni,
ming bosh

